



THE JUDICIAL SYSTEM IN TURKESTAN: THE HISTORY OF QADIS AND QADI COURTS

Islom Korjovov

Jizzakh State Pedagogical University

2nd-year student, Faculty of History

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: qadi, qadi courts, qadi administration, qadi al-quzzat, Sharia, Islamic law, judicial system, Emirate of Bukhara, Kokand Khanate, Khiva Khanate, Turkestan, Russian Empire.

Received: 04.08.26

Accepted: 05.08.26

Published: 06.08.26

Abstract: This article examines the formation and development of the judicial system in Central Asia based on Islamic law, the activities of qadis and qadi courts, and their legal status in society. It explores the functions, powers, and role of qadis in judicial proceedings in the Emirate of Bukhara, the Kokand Khanate, and the Khiva Khanate. Particular attention is paid to the impact of the colonial policy of the Russian Empire on the traditional judicial system of Turkestan. The article also analyzes the significance of qadi courts and traditional legal institutions in preserving local legal norms and judicial traditions.

TURKISTON HUDUDIDA SUD TIZIMI: QOZILAR VA QOZIXONALAR TARIXI

Islom Qorjovov

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: qozi, qozilik, qozixona, qozikalon, shariat, islom huquqi, sud tizimi, Buxoro amirligi, Qo'qon xonligi, Xiva xonligi, Turkiston, Rossiya imperiyasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'rta Osiyoda islom huquqiga asoslangan sud tizimining shakllanishi va rivojlanishi, qozilik mahkamalarining faoliyati hamda qozilarning jamiyatdagi huquqiy mavqei tahlil etiladi. Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida qozilar faoliyati, ularning vakolatlari va sudlov jarayonidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, Rossiya imperiyasining Turkiston hududidagi mustamlakachilik siyosati va uning an'anaviy

sud tizimiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Maqolada qozilik va qozixona tizimining mahalliy huquqiy an'analarni saqlashdagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratiladi.

СУДЕБНАЯ СИСТЕМА В ТУРКЕСТАНЕ: ИСТОРИЯ КАДИЕВ И КАДИ-СУДОВ

Ислом Коржовов

Джизакский государственный педагогический университет

Студент 2-го курса исторического факультета

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: казий, казийство, казийский суд, казикалан, шариат, исламское право, судебная система, Бухарский эмират, Кокандское ханство, Хивинское ханство, Туркестан, Российская империя.

Аннотация: В статье рассматриваются становление и развитие судебной системы Центральной Азии, основанной на нормах исламского права, деятельность казиев и казийских судов, а также их правовое положение в обществе. Освещается деятельность казиев, их полномочия и роль в судебном процессе в Бухарском эмирате, Кокандском и Хивинском ханствах. Особое внимание уделяется влиянию колониальной политики Российской империи на традиционную судебную систему Туркестана. Анализируется значение казийских судов и традиционных правовых институтов в сохранении местных правовых норм и судебных традиций.

Kirish. Yurtimiz hududida faoliyat olib borgan Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklari boshqaruv tizimida islom dini alohida o'ringa ega edi. Jamiyatni tartibga solishda din va islomiy odob-axloq me'yorlaridan qozilar va qozixona vakillari unumli foydalanishgan. Ma'lumki, qozi lavozimi islom huquq tizimida muhim va o'ziga xos mansablardan biri bo'lgan. "Qozi" atamasi arab tilidagi "qazo" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, lug'aviy jihatdan "kesish", "ajratish" hamda "hukm chiqarish" kabi ma'nolarni anglatadi. Hanafiy ulamolari talqinida "qazo" muayyan tartib va usul asosida tomonlar o'rtasidagi nizolarni hal etish, xusumatlarni ajratish va bahsli masalalarga hukm chiqarish jarayonini ifodalagan. Hozirgi tadqiqotlarda esa "qozilik" tushunchasi, avvalo, mahkama yoki sud muassasasi bilan bog'liq holda qo'llanadi.

Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi natijasida jamiyat hayotining turli sohalari shariat qoidalari asosida tartibga solina boshladi. Mazkur jarayon hududda qozilik mahkamalarining shakllanishiga ham zamin yaratdi. Qozilik mahkamalari jamiyatda adolatni ta'minlash va nizolarni huquqiy asosda hal etishning muhim vositalaridan biriga aylandi. Qozilar

faoliyat olib boradigan maskanlar esa asrlar davomida “qozixona” yoki “dor-ul quzzot”, ya’ni adolat dargohi sifatida tanilgan.

O’rta Osiyo xonliklarida qozilar, odatda, sudlov ishlarini olib borish uchun o’zlariga qulay bo’lgan joyni belgilaganlar. Shu sababli sud ishlari ko’pincha masjid, madrasa yoki qozining xonadonida amalga oshirilgan. Vaqt o’tishi bilan sudlov jarayonlari uchun maxsus binolar ajratilib, alohida qozixonalar tashkil etila boshlagan. Buxoro amirligida qozixonalar faoliyati Amir Shohmurod (1785–1800) hukmronligi davrida yanada kengaydi. Amir Shohmurod mamlakatda adolatni qaror toptirish maqsadida Minorai Kalon yaqinidagi o’z hovlisida fuqarolarning arz va shikoyatlarini qabul qilish hamda ularni hal etish tartibini yo’lga qo’ygan. Bu davrda qozilik bilan bog’liq sudlov ishlarining boshqaruvida amirning o’zi ham faol ishtirok etgan. Sud ishlarini tartibga solish uchun maxsus sudlov qonunlari majmuasi ishlab chiqilgan va mamlakat hududidagi qozilar o’z faoliyatini mazkur qoidalar asosida olib borganlar. Mazkur davrda Buxoro amirligining asosiy sud idoralarini qozilik mahkamalari tashkil etgan bo’lib, mamlakatdagi bosh qozi qozikalon hisoblangan. Sud jarayonlari nisbatan sodda tartibda amalga oshirilgan. Fuqarolar qoziga o’z murojaatlarini og’zaki yoki yozma shaklda bildirishlari mumkin bo’lgan. Sud jarayonida ayblov yoki aybni isbotlashda shariat talablariga muvofiq yashaydigan, rostgo’y va halol kishilarning guvohligi muhim dalil sifatida qabul qilingan. Bunday guvohlarning soni kamida ikki nafar bo’lishi talab etilgan. Jazo tayinlash jarayonida esa qozilar aybdorning moddiy sharoiti, qilmishining darajasi, sodir etgan ishidan chin dildan pushaymonligi, yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda qoplashi va jabrlanuvchidan uzr so’rashi kabi holatlarni ham hisobga olganlar.

Qo’qon xonligida ham qozilik asosiy sud organlaridan biri bo’lib, qozilar xon tomonidan tayinlangan. Ularning vakolatlari faqat diniy masalalar bilan cheklanib qolmay, fuqarolik ishlarini ko’rib chiqishni ham qamrab olgan. Ayrim holatlarda qozilar o’lim jazosi to’g’risida hukm chiqarish vakolatiga ham ega bo’lgan. Xonlikdagi eng yuqori martabali qozi “Qozi ul-quzzot”, ya’ni “qozilar qozisi” yoki adliya vaziri sifatida faoliyat yuritgan. Shuningdek, sud va diniy boshqaruv tizimida “Qozi kalon” — poytaxt hamda viloyat markazlaridagi qozilar va qozixonalar faoliyatini nazorat qiluvchi mansabdor, “Qozi mutlaq” — bosh qozi, “Qozi askar” — qo’shin qozisi va “Qozi rais” — qo’shinlarda askariya muftisi tomonidan berilgan fatvolarning ijrosini nazorat qiluvchi mansabdor kabi lavozimlar mavjud bo’lgan.

Qo’qon xonligida qozi kalon o’z xizmatlari uchun yiliga 800 botmon g’alla va 1200 tanga miqdorida haq olgan. Diniy va sud tizimida xizmat qilgan mansabdorlarning asosiy daromad manbalari davlat tomonidan beriladigan maosh hamda turli xayr-ehson va to’lovlardan iborat

bo'lgan. Jumladan, nikohona, tarakona, merosdan olinadigan haq va boshqa turdagi to'lovlar ular daromadining muhim qismini tashkil etgan .

Qo'qon xonligining mahalliy boshqaruv tizimida qozilar boshqa xonliklardagi singari muhim mavqega ega bo'lgan. Ularning zimmasiga fuqarolarning arz, shikoyat va talablarini shariat qoidalariga muvofiq ko'rib chiqish hamda sudlov ishlarini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan. Qo'qon xonligida viloyat va shahar qozilari Buxoro va Xiva xonliklaridan farqli ravishda xon yorlig'i asosida shahar hokimlari tomonidan tayinlangan. Ko'pincha qozilik lavozimiga nomzod tanlashda uning qozilar avlodiga mansubligi ham inobatga olingan. Mahalliy boshqaruv tizimida faoliyat olib borgan qozilar o'z faoliyati yuzasidan hokim va beklar oldida javobgar bo'lgan. Fuqaro qozining chiqargan hukmidan norozi bo'lgan taqdirda esa oliy hukmdor — xon yoki tegishli hokimga murojaat qilish huquqiga ega edi.

Xiva xonligida ham davlat boshqaruvi tizimining muhim mafkuraviy asoslaridan biri islom dini bo'lgan. Mamlakatdagi qonun-qoidalar shariat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Xonlikdagi eng yuqori diniy mansablardan biri shayx ul-islom hisoblangan. U diniy marosimlarning belgilangan tartibda ado etilishini nazorat qilgan. Musulmon huquqi va shariat qonunlarining bajarilishini nazorat qiluvchi asosiy mansabdorlardan biri "Qozi ul-quzot", ya'ni qozi kalon bo'lgan. Qozi kalon poytaxtda o'z devoni va mahkamasiga ega bo'lgan, viloyat markazlarida esa hududiy qozilar faoliyat yuritgan. Bunday sud muassasalari "Dorul qazo" deb atalgan. Xiva xonligida harbiy sohada ham maxsus sudlov mansabi mavjud bo'lib, qozi askar qo'shin tarkibidagi qonun-qoidalar va shariatga oid masalalarni nazorat qilgan. Bundan tashqari, muftilar qozilarning huquqiy masalalar bo'yicha maslahatgo'yi sifatida faoliyat yuritgan. Ular sud ishlari ko'rib chiqilayotgan vaqtda ishtirok etish, hukmona tuzish hamda chiqarilgan hukmlarning to'g'riligini tasdiqlash maqsadida tegishli hujjatlarga muhr bosish vazifalarini bajargan. Xivada yetti nafar bosh mufti mavjud bo'lib, ularning barchasi xon huzurida muayyan mavqega ega bo'lgan. Lashkar tarkibida esa alohida mufti lashkar faoliyat yuritgan. Mazkur tizimda a'lam muftilarning rahbari hisoblangan. Uning asosiy vazifasi fatvolarda keltirilgan shariatga oid rivoyat va dalillarning to'g'riligini tekshirishdan iborat edi . Rivoyatlarning asl manbaga muvofiqligi aniqlangach, a'lam ularga o'z muhrini bosgan. Raislar esa jamiyatda shariat tartib-qoidalarining bajarilishi, diniy marosimlar, jumladan, ro'za, besh vaqt namoz, tahorat hamda xayriya ishlarining belgilangan tartibda ado etilishini nazorat qilgan. Har bir shahar va yirik qishloqda o'z raisi bo'lib, ular qozi kalon tavsiyasiga binoan xon tomonidan tayinlangan .

Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo hududlari bosib olinguniga qadar mintaqada yuqorida qayd etilgan an'anaviy sud tizimi faoliyat yuritgan. Sudlov jarayonlarining huquqiy

asoslarini Qur'oni Karim oyatlari, hadislar, ulamolar va diniy arboblarning asarlari tashkil etgan. Adolatli sudlov va huquqiy munosabatlarga oid qoidalar diniy-huquqiy manbalarda o'z ifodasini topgan. Bunga Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" asarini misol sifatida keltirish mumkin. Xususan, mazkur asarning 16-bobi oldi-sotdi munosabatlariga, 18-kitobi esa shartnomalar tuzishda kafolat berish masalalariga bag'ishlangan. Ana shu kabi huquqiy va diniy manbalar XIX asrda Turkiston o'lkasida faoliyat yuritgan qozilik hamda biylik sudlarining huquqiy asosini tashkil etgan.

Imperiya harbiy ma'muriyati Turkistondagi diniy va etnik omillarning murakkabligini hisobga olgan holda, turli xalqlar yashaydigan hududlarni yagona ma'muriy-hududiy birlikka birlashtirish masalasiga ehtiyotkorlik bilan yondashgan. Ayrim sharqshunos olimlarning fikricha, o'sha davrda nafaqat bosib olingan hududlarda, balki Rossiyaning o'zida ham musulmon aholining ko'pligi imperiya uchun muayyan xavf sifatida baholangan. Shu bois XIX asrning ikkinchi yarmida imperiya hukumatining diniy siyosati islom dinining keng tarqalishini cheklash va uning jamiyatdagi ta'sirini kamaytirishga yo'naltirilgan.

Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyo xalqlarining sud tizimini qayta tashkil etish orqali ham islom dinining aholi orasidagi ta'sirini susaytirishga intilgan. Shu bilan birga, imperiyaning hukmron doiralarida shariat sudlari va qozilar faoliyatiga nisbatan yagona qarash mavjud bo'lmagan. Turkiston viloyati harbiy gubernatori M.G. Chernyayev O'rta Osiyo hukmdorlari vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha keng huquqlarga ega bo'lgan bo'lsa-da, shariat sudlari faoliyatiga aralashmagan. Imperiya rasmiylari esa uning bunday siyosatidan norozilik bildirganlar. Mazkur holat oxir-oqibat Chernyayevning lavozimidan chetlashtirilishiga sabab bo'lgan. Chernyayev o'rniga kelgan D.I. Romanovskiy Toshkent shahrida mahkama tashkil etish haqida buyruq bergan. Yangi tashkil etilgan mahkamaga rais sifatida rus amaldori tayinlangan. Mahalliy aholiga tegishli masalalarni ko'rib chiqishda ularning mazmuniga oydinlik kiritish maqsadida qozining ham mahkama majlislarida ishtirok etishi belgilangan. Mahkamaning yana uch nafar a'zosi esa Toshkentning e'tiborli va nufuzli kishilari orasidan fuqarolar tomonidan tanlab olingan.

Toshkent mahkamasining tarkibida ko'chmanchi va o'troq aholiga oid masalalarni ko'rib chiqadigan ikki bo'lim faoliyat yuritgan. Sudlov jarayonida ishlar shariat qoidalariga asosida ko'rib chiqilgan. Agar biror masala yuzasidan e'tiroz yoki bahsli holat paydo bo'lsa, mahkama a'zolarining qaroriga muvofiq ishni harbiy gubernator ko'rib chiqishi uchun uning ixtiyoriga yuborish tartibi qo'llanilgan.

Tarixiy tadqiqotlarda Toshkentdagi ushbu mahkamaning faoliyati tugatilishiga bir necha omillar sabab bo'lgani qayd etiladi. Jumladan, shariat peshvolari o'rtasidagi kelishmovchiliklar

va mahalliy aholining mazkur muassasaga nisbatan ishonchsiz munosabati uning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Dastlab imperiya vakillari tomonidan mahalliy aholining rus sudlariga murojaat qilishi haqidagi taxmin ham o'zini oqlamagan. Chunki aholi avvalgidek, o'z muammolari va nizolarini shariat qoidalari asosida hal qilishni ma'qul ko'rgan.

Umuman olganda, Turkiston hududida sud tizimi va u bilan bog'liq qozixonalar faoliyati o'ziga xos tarixiy sharoitda shakllangan va rivojlangan. O'rta Osiyo xonliklari davrida Qur'on, hadislar, diniy-huquqiy soha vakillarining asarlari hamda boshqa manbalar sudlov tizimining asosiy huquqiy manbalari sifatida xizmat qilgan. Qozixonalar masjidlar qoshida tashkil etilishi lozim bo'lgan bo'lsa-da, amaliyotda ko'plab sudlov ishlari qozilarning uylarida, bozor kunlarida esa bozorlarda ko'rib chiqilgan. O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, sud tizimida ham ruslashtirish siyosati amalga oshirila boshlandi. Bu jarayon an'anaviy qozixonalar faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning avvalgi mavqei va faoliyat doirasining o'zgarishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Burxanuddin Marginani. Xidoya. Kommentarii musulmanskogo prava. V dvux chastyax. Chetryox tomax. Chast 1. <https://www.worldislamlaw.ru/?p=1343>).
2. <https://yuz.uz/news/buxoroning-qadimiy-qozixonalari-qayta-tiklanmoqda>
3. Vohidov Sh. Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida unvon va mansablar. – Toshkent: Fan, 1996-yil. 79-bet.
4. Toshev S. Buxoro amirligida amir Shohmurod islohotlari// Academic research in educational sciences. Volume I. Issue 3. 2020-yil.
5. Xudoyqulov T.D. Markaziy osiyo davlatlarining boshqaruv tarixi (markaziy, mahalliy, harbiy, diniy hokimiyat (XVIII –XX asr boshlari)).-Shahrisabz: 2023-yil. 144-bet.
6. <http://xorazmiy.uz/uz/pages/view/576>
7. Muhammad Alixon G'afur. Xorazm safari kundaligi. – Toshkent.: FAN, 2005-yil.117-bet.
8. Vasilyev D.V. russkiy Turkestan: sudba i vlast (Turkestanskiye general-gubernatory v 1865-1886gg.) //Aziatskaya Rossiya: lyudi i struktury imperii: sbornik nauchnykh statey. K 50-letiyu so dnya rojdeniya professora A.V. Remneva / Pod red.N.G. Suvorovoy. - Omsk: Izd-vo OmGU, 2005.– 377.